



The role of lesson components in designing English lessons

Dilshoda MAKHKAMOVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

lesson project,
lesson components,
skills,
lesson stages

ABSTRACT

As a solution to the problem of improving the quality of education and training qualified personnel in recent years, this article highlights the role of effective lesson design, its methods, and its components in organizing lessons at a high level. Additionally, the lesson components proposed by various researchers are discussed, and further recommendations for designing English language lessons are provided.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp222-226>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Chet tili (ingliz) darslarini loyihalashda dars tarkibiy qismlarining o'рни

Kalit so'zlar:

dars loyihasi,
dars tarkibiy qismlari,
ko'nikmalar,
dars bosqichlari.

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash muammosining yechimi o'laroq, mazkur maqolada darsni samarali loyihalash, uning usullari hamda dars tarkibiy qismlarining darsni yuqori saviyada tashkil etishdagi o'рни yoritilgan. Shuningdek, turli tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan dars tarkibiy qismlari muhokama qilinib, ingliz tili darslarini loyihalashda qo'shimcha tavsiyalar berilgan..

Роль компонентов урока в проектировании уроков английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

проект урока,
компоненты урока,
навыки,
этапы урока.

В качестве решения проблемы повышения качества образования и подготовки квалифицированных кадров в последние годы в статье подчеркивается роль эффективного проектирования урока, его методов и компонентов в организации учебного процесса на высоком

¹ PhD Student, Namangan State University.

уровне. Также обсуждаются компоненты урока, предложенные различными исследователями, и приводятся дополнительные рекомендации по проектированию уроков английского языка.

KIRISH

Dunyo miqyosida dars samaradorligini oshirishga bo'lgan sa'y-harakatlar va ta'limdagi islohotlarning asosida malakali kadrlar tayyorlash muammosi asosiy omil hisoblanadi. Har qanday fan sohasidagi malakali pedagogni shakllantirishda esa kasbiy bilim hamda pedagogik mahorat bilan bir o'rinda darsni samarali loyihalash ko'nikmasi katta ahamiyatga kasb etib, u pedagoglardan kasbiy mahorat va zaruriy ko'nikmalarni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bu jarayonda pedagoglar fan mavzusiga doir materiallardan tashqari boshqa ko'plab darsni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni ham oldindan rejalashtirishlari zarur. Tadqiqotchilar Elly's Mersina Mursidik, Toto Nusantara va boshqalarning fikriga ko'ra, har qanday darsni loyihalash o'qituvchilardan bir necha bosqichni bosib o'tishni talab etadi. Ular, asosan, uchta bosqich bo'lib, ular: *o'ylash*, *amalg*a oshirish hamda *tahlil* bosqichlaridir. O'ylash bosqichida, dastlab pedagog darsni qanday tashkil etish, o'quvchilarning o'rganishi zaruriy bo'lgan mavzularni aniqlash, dars maqsadlarini to'g'ri belgilash hamda dars jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni taxmin qilib tayyorgarlik ko'radi. Amalga oshirish bosqichi esa dastlab o'quvchilarning o'rganish usullarini aniqlash va mosini tanlab olish, darsda foydalaniladigan axborot-texnologiya vositalari, kerakli ko'rgazmali qurollar va resurslarni aniqlashni o'z ichiga oladi. So'ngra tahlil bosqichiga esa darsni kuzatish, o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini nazorat etish hamda darsda kechayotgan turli vaziyatlarni va erishilgan natijalarni tahlil etish va baholash kiradi [1]. Bu bosqichlarning har biri alohida muhim ahamiyatga ega bo'lib, yosh pedagoglar, asosan, ikkinchi, ya'ni darsni loyihalash ko'nikmasini shakllantirishga katta ehtiyoj sezadilar. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning hozirgi bosqichdagi bilim saviyasi hamda ularning ehtiyojini o'rganib chiqqach, o'tiladigan dars bosqichlari hamda barcha darsni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarini avvaldan puxta o'ylab rejalab chiqishi lozim.

Darsni loyihalashning juda ko'p usullari bo'lib, sohadagi yetakchi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, eng samarali dars rejasi quyidagi elementlardan tashkil topgan bo'lishi lozim:

1. Mavzu.

O'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'rganilishi lozim bo'lgan kommunikativ hamda real hayot kontekstiga ega bo'lgan mavzu tanlanadi. Masalan, til bilish darajasi boshlang'ich darajada bo'lgan o'quvchilarga shifokor ko'rigi mavzusi doirasidagi chet tili bilimi zarur bo'lsa, unda 'Shifokor bilan muloqot' mavzusi doirasida bir necha darslar ketma-ketligi ishlab chiqilishi mumkin.

2. Dars maqsadlari.

Pedagog dars maqsadlarini dastlabki bosqichda aniqlab olishi lozim bo'lib, yaxshi yozilgan maqsadlar o'quvchilarning dars so'ngiga qadar nimalarni bilib olishlarini emas, balki nimalar qila olishlarini bayon etadi. Dars maqsadlari tanlangan dars mavzusiga bog'liq bo'lishi lozim. Masalan, dars mavzusi 'Shifokor bilan muloqot' bo'lsa, u holda dars maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) dars so'ngiga qadar o'quvchilar shifokorga

ulardagi bir nechta kasallik belgilarini ingliz tilida aytib bera oladilar; 2) dars so'nggiga qadar o'quvchilar ingliz tilida bir necha kasallik nomlarini aytib bera oladilar [2].

M.Spratt va boshqalarning fikriga ko'ra esa, dars maqsadlari har doim ham ma'lum bir natijani ko'zda tutmaydi, balki bu shunchaki hikoya tinglash (ayniqsa, yosh bolalar uchun) yoki hujjatli film tomosha qilish bo'lishi mumkin. Shuningdek, ularning fikriga ko'ra, dars uchun eng mos va to'g'ri maqsadni tanlab olish uchun o'qituvchi shu ikki savolga javob berishi lozim:

- a) O'quvchilar hozirda ushbu mavzu doirasida qay daraja bilimga egalar?
- b) Shu mavzuga doir ular yana nimalarni bilishlari lozim?

3. Ko'nikmalarni faollashtirish.

Bu o'quvchilarga belgilangan dars maqsadlariga erishishlariga xizmat qiluvchi ko'nikmalar ketma-ketligi hisoblanib, bularga dars mavzusi doirasidagi so'z boyligi, ularni to'g'ri talaffuz etish ko'nikmasi hamda mavzuga doir muloqotni o'rganishga doir grammatik mavzu bo'lishi mumkin. Misol uchun, dars mavzusi 'Shifokor bilan muloqot' bo'lsa, unga doir o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'z boyligiga (*cough, headache, fever*) *yo'tal, bosh og'rig'i, shamollash* kabi so'zlar kirishi mumkin. Bu so'zlarni muloqotda to'g'ri qo'llash uchun zarur bo'lgan grammatik mavzu "hozirgi oddiy zamon fe'li" (Present Simple Tense) hamda mavzuga doir talaffuz qoidalari esa *ch* hamda *ache* harf birikmalarini to'g'ri talaffuz etish bo'lishi mumkin.

4. Dars bosqichlari.

Sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, darsni bosqichlarga bo'lib tashkil etish o'quvchilar tomonidan dars maqsadlariga erishilishini anchayin osonlashtiradi. Ko'pgina ingliz tili darslari o'tgan darsning yengil takrori, kirish, yangi mavzu taqdimoti, mashq qilish hamda baholash, tahlil etish va olingan bilimni amaliyotda qo'llash kabi bosqichlardan iboratdir. O'qituvchi ehtiyojga qarab istagan bosqichga o'quvchilarning tushunganlik darajalarini tekshiruvchi savollar qo'shishi mumkin. Bunda e'tiborga molik jihat shuki, har bir bosqich va undagi mashqlar o'quvchilarga avvaldan belgilab qo'yilgan dars maqsadlariga yetishlariga xizmat qilmog'i joiz. Masalan, 'Shifokor ko'rigida' mavzusida o'tiladigan darsda o'qituvchi tomonidan ingliz tilida biror shifokor bilan bemor o'rtasidagi dialog tanlanishi mumkin. Dars taqdimotida o'quvchilar ushbu dialog bilan yaqindan tanishadilar, mashq bosqichida esa bu dialog tashkil topgan yangi so'zlar, grammatik qoidalarga doir mashqlarni bajarib, amaliyot bosqichida juft-juft bo'lib ushbu dialogni ijro etishlari mumkin.

5. Kerakli materiallar, flashkardlar, jihozlar va kerakli axborot texnologiya vositalari.

Darsda rejalashtirilgan barcha bosqichlar hamda mashqlar maromida o'tkazilishini ta'minlash uchun uchun pedagog kerakli jihozlar va materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi lozim [2]. Shuningdek, yuqoridagi darsni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarga qo'shimcha, o'qituvchilar darsda foydalaniladigan mashqlar ketma-ketligi, ularning uzviy bog'liqligi hamda qancha vaqt sarf etilishi, darsda kuzatilishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar, o'quvchilarning turli darajadagi bilim saviyalarini ham oldindan rejalab, kerakli choralarni ko'rib qo'yishlari darkor.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuningdek, tadqiqotchilar M.Spratt, A.Pulverness hamda M.Williams larning fikriga ko'ra, chet tili, xususan, ingliz tili darslarini loyihalashda bir necha tarkibiy qismlar muhim hisoblanadi. Hamda ularni aniqlashda pedagoglar quyidagi jadvaldagi savollardan

foydalanishlari lozim (1-jadvalga qarang). Shundagina dars loyihasi samaradorligi yuqori darajada ta'minlangan bo'ladi.

Jadval-1.

Darsning tarkibiy qismlari

O'quvchilar haqida ma'lumot	Darsni kim uchun loyihalashtiryapsiz?
Dars jadvaliga moslik	Dars undan avvalgi hamda o'zidan keyingi dars mavzulariga bog'liqmi?
Asosiy dars maqsadlari	Darsning so'nggiga qadar o'quvchilar qanday ko'nikmaga ega bo'lishlari kutiladi?
Yordamchi dars maqsadlari	Asosiy dars maqsadiga erishishlari uchun ular yana qanday qo'shimcha ko'nikmalarni shakllantirishlari lozim?
Dars bosqichi maqsadi	Har bir dars bosqichining maqsadi qanday?
Shaxsiy maqsad(pedagogik)	O'qituvchi sifatida qaysi ko'nikmangizni rivojlantirmoqchisiz?
Taxminlar	O'quvchilar dars maqsadlariga oid nimalarni avvaldan biladilar deb o'ylaysiz?
Kutiladigan muammoli vaziyatlar	O'quvchilar darsdagi nimalarni tushunishga qiynalishadi deb o'ylaysiz?
Yechimlar	Yuz berishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatga qanday yechim topsa bo'ladi?
Ko'rgazmali qurollar, materiallar, axborot-texnologiya vositalari	Darsga o'zingiz bilan nimalarni olish darkor?
Dars jarayoni	Har bir dars bosqichida o'quvchilar qanday topshiriqlarni bajaradilar?
Vaqt	Har bir dars bosqichlariga qancha vaqt sarflanishi lozim?
O'quvchilar ishlash usullari	O'quvchilar har bir dars bosqichida birgalikda qanday usullarda ishlaydilar?
Uyga vazifa	Keyingi darsgacha o'quvchilar yana qanday qo'shimcha topshiriq bajarishlari lozim?

Hamma turdagi dars loyihalari yuqoridagi sanab o'tilgan barcha tarkibiy qismlardan tarkib topmasa-da, asosiy komponentlari hamma rejalash bosqichlarida uchraydi. Asosiysi, darsga tayyorlanish bosqichida yuqoridagi savollar har bir o'qituvchi tomonidan so'ralishi lozim, hamda bular dars samaradorligini ko'tarishga xizmat qiladi. Shuningdek, sohadagi tadqiqotchilarning fikricha, har qanday dars loyihasini ishlab chiqqandan so'ng, chet tili o'qituvchilari quyidagi savollarga javob bera olishlari lozim:

1. Dars maqsadlari qanday va unga erishilganini qanday tekshirsa bo'ladi?
2. Darsda qo'llaydigan texnikalarim turli xilmi yoki bir xil?

3. Agar tayyorlagan dars loyiham o'quvchilarga osonlik yoki qiyinlik qilishni boshlasa, tezlik bilan uni yana o'zgartirib moslashtira olamanmi?

4. Darsda eshitish, yozish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yetarlicha imkon va vaqt ajratildimi?

5. Tanlangan topshiriqlar ma'noli va maqsadlimi?

6. Dars loyihasi o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda tayyorlanganmi?[4]

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, darsni tashkillashda har bir tarkibiy qism o'z o'rniga ega hamda har bir pedagog ularni darsdan avval atroflicha tahlil etib, so'ng amalda qo'llashi lozim. Dars samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri esa, aynan shu dars elementlarini to'g'ri qo'llay olish hamda o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga ko'ra ularni shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mursidik E.M., Nusantara T., As'ari A., Muksar M. How to Design Learning Activities That's Created SLR Type Students? Pegem Journal of Education and Instruction, Vol. 13, No. 4, 2023 (pp. 316-322)

2. Effective Lesson Planning for Adult English Language Learners, Trainer Guide., The CAELA Guide for Adult ESL Trainers, (pp.38-40)

3. Spratt M., Pulverness A., Williams M., The Teaching Knowledge Test Course. Second Edition, Cambridge University Press, 2011 (pp. 132)

4. Lynette Kim M.Ed. TESOL Guidebook., ©2017 TESOL AUSTRALIA V00019, (pp.56)